



AGROKLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING AHAMIYATI

*Toshkent davlat agrar universiteti talabasi
Salomov Bekzodjon Ilxomjon o‘g‘li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada agroklasterni tashkil etish zaruriyati, rivojlantirishning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati, shart-sharoitlari va samaradorligini aniqlashga oid nazariy qarashlarni o‘rganish hamda ularning umumiy xususiyatlarini tizimlashtirish asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmining asosiy yo‘nalishlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: agroklastar, “yagona texnologik zanjir”, “revolver” kredit, transformatsiya, texnologiya, paxta-to‘qimachilik klasteri, tayyor mahsulot, yuqori qo‘shimcha qiymat, eksport, intensiv, mexanizm.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining transformatsiyasi jarayonlarida bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ichki va tashqi tendensiyalar - dunyoda va mamlakatlarda oziq-ovqat muammolarining keskinlashuvi sharoitida qishloq xo‘jaligi rivojlanishi strategik ahamiyatining ortishi, mustaqillik yillarida respublikamizda ushbu tarmoqda to‘plangan ijobiy tajribalarni jahon xo‘jaligida erishilgan so‘nggi ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlaridan foydalangan holda rivojlantirishni talab etadi.

Bunda milliy iqtisodiyot darajasida pirovard mahsulot va xizmatlar yaratishda ishtirok etuvchi hududiy yoki tarmoqlararo kesimdagi “yagona texnologik zanjir”ga bog‘langan barcha ishlab chiqaruvchi (xizmat ko‘rsatuvchi) larni o‘z ichiga olgan “klaster” lar mavjud bo‘lishi muhimdir. Mamlakatimizda agrosanoat majmuasini klasterlashning o‘ziga xos xususiyatlari, mamlakat iqtisodiyoti, xususan, agrar tarmoqning ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini oshirishda uning huquqiy asoslarini tadqiq etish orqali uni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Shu maqsadda bugungi kunda qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq ahlining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta‘minlash masalalari bevosita qishloq xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy usuli — klasterlar tizimi bilan bog‘liq. Ta‘bir joiz bo‘lsa, ushbu yangi tuzilma o‘tgan juda qisqa vaqt ichida agrar sohani harakatlantiruvchi yetakchi kuch — drayveriga aylandi.



Shu jihatdan, prezident Shavkat Mirziyoyev: “Klaster va manfaatdorlik – O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining kelajagi”, - degani bejiz emas. Davlat rahbari Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni munosabati bilan dehqon va fermerlar, agroklastlar egalariga yo‘llagan tabrigida “qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga agroklastlar tizimining joriy etilgani qisqa fursatda o‘zining ijobiy samarasini berayotgani”ni e‘tirof etib o‘tgan edi.

Shuning uchun, agroklastlarning iqtisodiy mohiyati, tashkil etish zaruriyati va rivojlantirish tamoyillari, shart-sharoitlari, bosqichlari va samaradorligini aniqlashga oid nazariy qarashlarni o‘rganish asosida takomillashtirish, uning umumiy xususiyatlarini tizimlashtirish asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yo‘nalishlari, xususan, agroklastlarni rivojlantirishning mazmun va mohiyatini yoritishda asosiy jihat O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlarga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlariga, Prezident farmon va qarorlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asoslanadi. Agrar sohada amalga oshirilayotgan asosiy iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy munosabatlar ham aynan yuqorida keltirilgan normativ ahamiyatga ega bo‘lgan me‘yoriy hujjatlar orqali tartibga solib turiladi.

O‘zbekiston Respublikasida klasterlar tizimi 2017-yilda joriy etilgan bo‘lib, dastlab Buxoro viloyatida “BCT cluster” MCHJ¹ hamda Sirdaryo viloyatida “Bek klaster” MCHJ² paxta-to‘qimachilik klasterlari tajriba-sinov tariqasida tashkil etildi. Klaster tizimi yaxshi natija ko‘rsatganidan keyin, mamlakatimiz bo‘ylab turli klasterlar tashkil etila boshlandi. Bugungi kunda respublikada paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik, sholichilik va meva-sabzavotchilik klasterlari faoliyat olib bormoqda. Xususan, hozirgi kunda qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlarida 650 dan ziyod agrosanoat klasterlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

So‘nggi besh yillikda mamlakatimizda har bir sohada chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgani kabi qishloq xo‘jaligida ham qo‘shilgan qiymatlar zanjirini yaratish, tabiiy va moddiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida klaster usuli keng tatbiq etilmoqda. Shu sababli ham, oxirgi yillarda agroklastlar faoliyatini rivojlantirish va ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi “Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2978-son qarori asosida tashkil etilgan.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentyabrdagi “Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to‘qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3279-son qarori asosida tashkil etilgan.



huquqiy asosini tashkil etuvchi va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga doir bir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, 2021-yil 15-dekabrda meva-sabzavotchilik tarmog‘i bo‘yicha “Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 52-sonli Prezident qarori qabul qilindi.

Qarorga ko‘ra, 2022 yil 1 yanvardan boshlab fermer, dehqon xo‘jaliklari va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga – meva, uzum, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, ko‘katlar va dorivor o‘simliklar, dukkakli va moyli ekinlarni yetishtirish uchun hosil qiymatining 50 foizigacha yillik 14 foiz stavkada 6 oylik imtiyozli davr bilan 12 oy muddatga kredit ajratilishi hamda meva-sabzavotlarni qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchilarga – yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xarid qilishga talab etiladigan aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun yillik 14 foiz stavkada 12 oylik “revolver” kredit berilishi belgilandi. Mazkur tadbirlarni moliyalashtirish uchun Jamg‘armaga 2 trln so‘m byudjet ssudasi ajratildi. 2022-yil 1-martdan meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalar) va fermer xo‘jaliklariga – eksport shartnomasi mavjud bo‘lib, meva-sabzavot hosilini xavf-xatardan sug‘urtalash xizmatidan foydalanganda to‘langan sug‘urta mukofotining 50 foizi, biroq sug‘urta pulining 1 foizdan ortiq bo‘lmagan qismi qoplab beriladigan bo‘ldi. Meva-sabzavotchilik klasterlariga – xorijdan malakali agronom, entomolog, laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizi, biroq bir oyga 1 nafar mutaxassis uchun 1 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmagan qismi Qishloq xo‘jaligi vazirligining tuman bo‘limlari orqali kompensatsiya qilinishi belgilab qo‘yildi.

Manfaatdorlik ustuvor bo‘lgani uchun ham, meva-sabzavotchilik klasterlari har bir imkoniyatdan unumli foydalanish payida. Umuman olganda, bugungi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlardagi klasterlarda 24,5 ming gektar mahalliy, 10,8 ming gektar intensiv bog‘ va 25,6 ming gektar tokzorlar mavjud. Xususan, 2022-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, 62 ta klasterlarda quvvati 956,2 ming tonna bo‘lgan qayta ishlash zavodlari, 32 ta klasterlarda quvvati 290,5 ming tonna bo‘lgan mahsulotni saralash va qadoqlash, 23 ta klasterlarda quvvati 230,5 ming tonnalik mahsulotni quritish hamda 136 ta klasterlarda quvvati 360 ming tonnalik oddiy va muzlatkichli omborxonalar mavjud³.

³ Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti (www.agro.uz) ma‘lumotlaridan olindi.



Yuqorida keltirilgan raqamlar – qishloq xo‘jaligidagi yangi tizim sharofati bilan qo‘lga kiritilgan yutuqlarning kichik bir qismi, xolos. Chunonchi, klaster tizimida faoliyat olib borayotgan korxonalar va fermer xo‘jaliklari uning afzallik jihatlarini, sohada sezilarli o‘zgarishlar yuz berayotganligini va klaster siyosati iqtisodiyotning barcha sohalari uchun istiqbolli ekanligini allaqachon anglab yetishgan.

Milliy iqtisodiyotimizda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ularning ilg‘or yutuqlaridan foydalanish o‘ziga xos o‘rin tutadi. Misol uchun, Janubiy Koreyada agroklasterni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta’kidlagan holda O‘zbekiston sharoitida ham ularni inobatga olish mumkin⁴. Jumladan:

- qishloq xo‘jaligiga davlatning amaliy yordami va qo‘llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishda yetakchiligi;

- tarixiy va milliy an‘analardan foydalanib, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo‘nalishlar, masalan agroturizm, mehmonxona xizmati kabilarni shakllantirish;

- hududiy ixtisoslashuv, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanish barqarorligini ta’minlash;

- davlat – universitet – ilmiy-tadqiqot – fermer – qayta ishlash – biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o‘zaro mutanosibligini ta’minlash mexanizmi;

- olimlar mavqei va ilmiy-tadqiqot natijalarining samarali ekanligi hamda ularni qo‘llab-quvvatlashning davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi;

- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;

- marketing tizimi rivojlanganligi, inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Xorijiy tajribalarga e’tibor qaratsak, AQSh, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Yevropa mamlakatlari tajribasida agrosanoat klasterlari faoliyati qonun (normativ-huquqiy hujjat) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan. Mazkur munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar asosida, jumladan, sheriklik shartnomasi, kooperatsiyaga birlashish orqali amalga oshiriladi. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, agroklasterni rivojlantirish va ular faoliyatini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

⁴ Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik / R.X.Ergashev, Sh.Sh.Fayziyeva, S.N.Xamrayeva; – T.: —Iqtisod-Moliya, 2018.



Hisob-kitoblarga ko‘ra, hozirda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning 50 foizi klaster tizimiga o‘tgan. Misol uchun, AQSHda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining yarmidan ziyodi klasterga o‘tib, iqtisodiy o‘shishga ta’siri sezilarli darajada. Mutaxassislar kuzatuidan, kuchli raqobat sharoitida ustunlikka erishishda klaster eng to‘g‘ri yo‘l hisoblandi. Bu tizim har qaysi sharoitda ham o‘zini oqlaydi, muammodan chiqib ketishni va davlatni raqobatbardosh bo‘lishiga erishiladi. Nufuzli davlatlarda barcha sohalarda klasterni joriy qilish iqtisodiy samaradorlikka erishishdagi eng oqilona yo‘l hisoblanadi. Mamlakatda tayyorlanadigan tovarlarni to‘liq shu tizimga o‘tkazish natijasida ham YaIMning salmoqli foiziga erishish mumkin. Shu o‘rinda, rivojlangan davlatlar amalga oshirayotgan agrar sohadagi islohotlar o‘rganilgan holda mamlakatimizda ham ularni qo‘llash, tajribada sinash ishlari jadal olib borilmoqda. Eng muhimi, dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida sinalgan, yaxshi samara bergan klaster usulida ish faoliyatini tashkil etish zarur bo‘lsa har qanday sharoitga moslasha oladi, iqtisodiy, ijtimoiy va ishsizlik muammolari bo‘yicha samarali yechim topa olish imkoniyatini yaratadi.

Qishloq xo‘jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, aholining turmush sharoitini yaxshilash, subyektlar manfaatdorligini ta‘minlash masalalari sohada ishlab chiqarishning zamonaviy usuli – klasterlar tizimi bilan jips holda amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, klaster tizimiga o‘tish dunyodagi yirik davlatlarda o‘zining sezilarli natijasini ko‘rsatgan. Bir mahsulot asosida industrilashgan tizimni tashkil qilib, mahsulotning sifatini va hajmini yuqori samaradorlikka ko‘taradi. Agroklasterlar rivojlanishining iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va tizimdan foydalanishning afzallik jihatlari esa davlat iqtisodiyotining samarali o‘shishi, yaratilgan yangi ish o‘rinlari, bank kreditlarini olish, soliq imtiyozlarida namoyon bo‘ladi. Shu asosda, davlat tomonidan agroklasterlarni rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlash mexanizmining takomillashuvi natijasida O‘zbekistonda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, klaster usulining yo‘lga qo‘yilishi bozor tamoyillariga o‘tishda, sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirish, reja ortidan quvish va majburiy mehnat holatlariga butunlay chek qo‘yishda muhim omil bo‘lmoqda. Buning natijasida hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son Farmoni.
3. Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Klaster – integrasiya, innovasiya va iqtisodiy o‘shish. Risola. T.: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2018-y.
4. Ergashev R.Kh., Khamraeva S.N., Fayzieva Sh.Sh. Innovative development of agricultural infrastructure: problems and ways of its achievement // The phenomenon of market economy: from the origins to the present day. Partnership in the face of risk and uncertainty. – 2020
5. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti: Darslik / R.X.Ergashev, Sh.Sh.Fayziyeva, S.N.Xamrayeva; – T.: —Iqtisod-Moliya, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi (<https://www.lex.uz>) ma‘lumotlari asosida.
7. Qishloq xo‘jaligi vazirligi rasmiy sayti (<https://www.agro.uz>) ma‘lumotlari asosida.